

NOZIL XO‘JANDIY LIRIKASINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI (“EY NIGORIM NEDINKIM” G‘AZALI TAHLILI)

Gulobov Abdulvosit Nurulla o‘g‘li

TerDU, O‘zbek adabiyotshunosligi

kafedrası o‘qituvchisi

abdulvositgulobov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Nozil Xo‘jandiyning devoni haqida , undagi asarlar janri, g‘oyaviy -badiiy xususiyati yoritilgan. Shuningdek “Ey nigorim nedinkim”deya boshlanuvchi g‘azali badiiy tahlil qilingan. G‘azalda majoz, tashbeh, nido kabi she‘r san‘atlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Noziliy, devon, g‘azal, qit‘a, “Ey nigorim nedinkim”, navbahor, fasli hazon, bogbon, ilohiy ishq.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается диван Нозила Ходжанди, его жанровые, идейно-художественные особенности, художественно анализируется газель, начинающаяся с «О нигорим нединким», используются имена.

ABSTRACT

This article describes Nozil Khojandi’s divan, its genre, ideological and artistic features. Also, the ghazal that begins with "O nighorim nedinkim" is analyzed artistically. names are used.

Nozil Xo‘jandiy lirik asarlarini o‘zida jamlagan devoni haqida Usmon Karimov o‘z monografiyasida shunday deydi: “devonning o‘lchami 12/20 sm va 253 varaqdan iborat. Ikki ustunli ushbu nusxaning har bir sahifasida 11-12 qator adabiyotlar yozilgan. devonning qopqog‘i sarg‘ish rangga ega bo‘lib, uning ikki tomonida uch-oltita medalyon o‘yilgan. nusxaning chizig‘i yo‘q va qog‘oz korroziyaga uchragan. 229a varaqdagi eslatmaga ko‘ra, kitob muallifning o‘z qo‘li bilan 1283/1865-yilda Qo‘qonda tuzilgan: “Kitobning oxiri Xudoning inoyati ila kasalga begona muallifning qo‘li bilan. -Mulla Xo‘jandiy hijriy 1283-yilda Qo‘qonda. Allohim jannatda panohida asrasin..¹-unda she‘riy janrlardan masnaviy, musammat, qit‘a, muxammas,

¹ Усмон Каримов "Нозили хучанди" Душанбе. "Дониш":.1978. 20-б

ruboiy, gʻazal kabi sheʻr shakllari mavjud. Shoir devoni Alloh hamdi, paygʻambar naʻti bilan boshlangan. Shoir ijodini ikki tilda: tojik va oʻzbek tillarida olib borgan.

Shoir lirikasining gʻoyaviy –badiiy xususiyatlariga eʻtibor beradigan boʻlsak, shoir oʻz sheʻrlarida Allohga hamd, ilohiy ishq, pand-nasihat, odob-axloqqa chorlov, taʻlim-tarbiya olish kerakligi haqida, yoki baʻzi sheʻrlarida podshohlarning adolatsizligi haqida baʻzan hajv bilan baʻzan toʻgʻridan-toʻgʻri sheʻrlari orqali jamiyat holati yoritilgan.

Ushbu maqolada shoirning tasavvufiy gʻazalaridan “Ey nigorim nedinkim” deb boshlanuvchi ilohiy ishqni tarannum etuvchi asari tahlilini amalga oshirsak, gʻazal devonning 5-betida, gʻazal a-a;b-a;d-a;e-a:f-a; shaklida qofiyalangan. gʻazal matni:

Ey nigorim nedinkim, dil-u jon sadqa senga,
Na erur sipehri dil-u jon, balki jahon sadqa senga.
Foniy dunyo uza yer ziynatidur yaxshi-yomon,
Biri qolmasdin hamma yaxshi-yomon sadqa-senga.
Husningga baʻzi shakku baʻzi gumon aylar esa,
Bu yaqin angla, hamma shakku gumon sadqa senga.
Istayub, nomi xaloyiq ketsa benom-u nishon,
Rostin anglosalar nom-u nishon sadqa senga.
Bogʻbon koʻrsa jamoling ketib oʻzdin qoladur,
Navbahor-u gul-u dame, fasli xazon sadqa senga¹.

Birinchi misrada: “Ey nigorim nedinkim, dil-u jon sadqa senga”-yaʻni “nigor” forschada yuzga aytiladi, bu yerda ey gul yuzligim, dil-u jon sadqa senga (bagʻshida) maʻshuqaga nisbatan ishlatmoqda.

Ikkinchi misrada: “Na erur sipehri dil-u jon, balki jahon sadqa senga” – “sipehr” osmon-yaʻni nafaqat dil-u jonim osmonini, balki jahon (umuman hamma narsa) sadqa senga.

Uchinchi misrada: “Foniy dunyo uza yer ziynatidur yaxshi-yomon” “Foniy” oʻtkinchi- yaʻni oʻtkinchi dunyo ustida yer ziynati yaxshi yomon (yaxshi-yomon inson, ishlar yerning ziynati hisoblanadi).

Toʻrtinchi misrada: “Biri qolmasdin hamma yaxshi-yomon sadqa-senga” –yaʻni foniy dunyoni ziynati hisoblangan, barchasi “biri qolmasdin” yaxshi-yomon sadqa senga.

Beshinchi misrada: “Husningga baʻzi shakku baʻzi gumon aylar esa”-sening husningga, qudratinga, baʻzilar “shak” (ishonmayotgan), baʻzilar gumon (ikkilanish) qilayotgan boʻlsa.

¹ Nozil Xoʻjandiy devoni. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Hamid Sulaymon fondida inventar 505. 5-bet

Oltinchi misrada: “Bu yaqin angla, hamma shakk-u gumon sadqa senga” –“Bu yaqin angla”-ya’ni kuchli ishonch,e’tirozsiz tasdiq bilan angla. Hamma shak,hamma gumon senga sadqa bo’lsin(sening yo’lingda barcha shak,gumonlarni yo’q qilaman, bular menga ta’sir etmaydi).

Yettinchi misrada: “Istayub nomi xaloyiq, ketsa benom-u nishon”- xaloyiqni ichida agar “nom”ni istasa, u bu dunyodan benom-u nishon ketadi.

Sakkizinchi misrada: “Rostin anglosalar nom-u nishon sadqa senga”- “Rostin” haqiqatin,ya’ni haqiqatni bilsalar nom-u nishonni senga sadqa qildim (menga keragi yo’q) deydi.

To’qqizichi misrada: “Bog’bon ko’rsa jamoling ketib o’z din qoladur”- Bu misrada “Bog’bon” foniy dunyoda o’z ishi bo’yicha “bog’bon” (ishining ustasi) hisoblangan kishi agar “jamoling”(qudrating,haqiqatlarning)ni ko’rsa, “o’z din qoladur”(o’zining ishlarini unutadi, hayratdan lol qoladi)-deydi.

O’ninchi misrada: “Navbahor-u gul-u dame, fasli xazon sadqa senga”- ya’ni inson hayotining: “navbahor”(umrning boshi), “gul-u dame”(umrning shabob davri), “fasli xazon”(umrning sarhisob, oxirgi damlari) umrimning har fasli senga sadqa bo’lsin.

G’azal mazmunidan shu ko’rinib turibdiki, g’azalda ilohiy ishq tarannum etilgan,bunda bir insonning Alloh taologa qulligi, uning “jamoli” har narsadan ustun ekanligi,bunga ishonmaydigan ba’zi insonlar bo’lsada lirik qahramon “Bu yaqin angla, hamma shakk-u gumon sadqa senga” –deya barcha gumonlarni rad etadi. G’azal o’xshatishlar,timsollar,majozlar orqali badiiy yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI: (REFERENCES)

1. Nozil Xo’jandiy devoni. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Hamid Sulaymon fondida inventar 505. 5-bet
2. Усмон Каримов "Нозили хучанди" Душанбе. "Дониш":.1978. 20-б
3. Gulobov Abdulvosit “Nozil Xo’jandiy hayot yo’li va ijodi”. Filologik tadqiqotlar: Til,Adabiyot,Ta’lim. Termiz-2023.109-111b